→ Bilamizki, soliq har qanday davlat shakllanishining asosiy daromad manbasi hisoblanadi. Shuning uchun hamki, bir qancha insonlar vaqtida tólanmagan soliqlar uchun moliyaviy choraning baland bólishi kerakligini ta'kidlasalar, boshqalar bu kabi jarimalardan foyda yóqligini aytishmoqda. Xósh, siz ham, kabob ham kuymasligi uchun qaysi yóldan borsak maqsadga muvofiq bóladi?

"Ogzi kuygan qatiqniyam puflab ichadi" deganlaridek, jarima miqdorining nisbatan ortiq bólishini istovchilar bu kabi choralar aholida mas'uliyat hissini paydo qilishiga urgu bermoqdalar. Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, Lotin Amerikasida soliq borasida qóllanilgan tadbirlarning qat'iyligi sababidan istiqomat qiluvchilarning har qanday majburiy tólovlarni vaqtida amalga oshirishga harakat qilishlari e'tiborga molikdir. Bundan tashqari, bunday choralar sógliqni saqlash, maorif, xavfsizlikni ta'minlash va boshqa xizmatlarga ajratilgan byudjetning qoplanishi uchun xizmat qiladi. Bu esa soliq tólanguniga qadar moddiy barqarorlikni ta'minlashga (xizmat qiladi) yordam beradi. →

Iqtisodiyot va moliya vazirligining hisobotiga kõra, qonunchilikka muvofiq byudjetni tuzish va ijro etish ishlarida jarimalarning ham alohida õrni borligi aytilgan.
Bosh qõl baravar bõlmaganidek, majburiy choralarning tadbirkorlik faoliyati, davlat va xalq õrtasidagi aloqalarida muammolar keltirib chiqarishini izohlovchilar ham talaygina. ("Chumchuq). Xalqimizda "Chumchuqdan qõrqqan tariq ekmas" maqoli bejiz aytilmagan. Endigina biznes boshlash arafasida turgan yoki shu yõnalishda õz salohiyatini kõrsatmoqchi bõlgan yosh tadbirkorlar uchun qonuniy tarzdagi moliyaviy choralarning borligi tõsiq sifatida salbiy ta'sir qiladi. Bu ularning õz faoliyatlarini tõxtatishlariga yo tõlov borasida yengilliklar mavjud bõlgan davlatda ishlashga majbur qiladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Gruziya davlati tadbirkor(ligining) larining 45 foizi Amerika Qõshma shtatlarida majburiy tõlovlardagi ma'lum bir imtiyozlarning (bor) mavjudligi tufayli õz bizneslarini u yerda davom ettirishmoqda. Shu bilan birgalikda bunday tadbirlar aholining davlat



CamScanner yordamida skanerlangan

→ idoralariga bo'lgan ishonchining kamayi-shiga olib keladi. Bu holat ortidan ko'plab ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Tekshiruv ishlar vazirligi axborot agentligining xabar berishicha, jamiyat a'zolari orasida yildan yilga davlat tashkilotlari va xodimlariga nisbatan yuzaga kelgan salbiy fikrlarning asosiy qismi jarima va huquqiy choralar tufayli yuzaga kelgan.

Nazarimda, soliq uchun to'lanadigan jarima miqdorining oshirilishi har tomonlama to'g'ri fikr deya hisoblayman. Bu faqatgina davlat byudjetini qo'llab quvvatlash emas, balki jamiyatdagi adolatni ta'minlovchi masaladir. Bu qonunga rioya qiladiganlarning manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Namuna sifatida, Germaniyadagi soliq tizimini keltirishimiz mumkin. Bu yerda soliqdan bo'yin tovlovchilar uchun qonuniy yoki jarimalar bilan jazolanadi, bu va qonunga itoat qiluvchi fuqarolarda adolat hissini oshiradi.

Xullas, jarimaning soliqdan yuqori bo'lishi ma'lum bir muammolarni keltirib chiqarsa-da, ularga boshqa



CamScanner yordamida skanerlangan

yo'llar orqali yechim topish mumkin. Yosh tadbirkorlar uchun imtiyozlar, ijtimoiy va moddiy tarafdan muhtoj oilalarga ko'mak — shular jumlasidandir. Davlatning rivoji — xalqning rivoji ekan, avvalo, soliq masalalariga faqat bir tomonlama emas, umumiy o'ylanganda maqsadga muvofiq bo'lardi.

NAMUNAVIY ESSE 20 BALL

3-LISTGA O'TIB KETMANG!



CamScanner yordamida skanerlangan